



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 19-aprel, № 76 (8699)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## O'zbekiston — Tojikiston:

# ITTIFOQCHILIK MUNOSABATLARI TO'G'RISIDAGI SHARTNOMA XALQLARIMIZ MANFAATLARIGA TO'LIQ MOS KELADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning taklifiga binoan 18-aprel kuni davlat tashrifi bilan Dushanbe shahriga keldi.



O'zbekiston va Tojikiston xalqlari nafaqat qo'shni, balki asrlar davomida qondoshu qardosh bo'lib, bir buloqdan suv ichib, bir havodan nafas olib, yagona osmon ostida bunyodkorlik ishlari bilan shug'ullanib kelgan, yaxshiyu yomon kunlarda yelkama-yelka turib, qiyinchiliklarni yengib o'tgan. Yagona din, o'xshash madaniyat, urf-odat va an'analar bir-biriga mustahkam bog'lab turadi.

Prezidentlarning siyosiy irodasi va uzoqni ko'zlab yuritayotgan oqilona siyosati tufayli keyingi yillarda mamlakatlarimizning ko'p qirrali hamkorligi yangi bosqichga ko'tarildi, xalqlarimiz do'stligi yanada mustahkamlandi.

Poytaxt aeroportida davlatimiz rahbarini Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon kutib oldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tordidi va ikki mamlakat davlat bayroqlari ko'tarildi. O'zbekiston Prezidentini kutib olishda Tojikiston yoshlari va ijodiy jamoalari vakillari ham qatnashdi.

So'ng Prezidentimiz "Do'stiy" maydoniga tashrif buyurib, Ismoil Somoniy haykali poyiga gul qo'ydi.

Dushanbedagi "Qasri Millat" qarorgohida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olishga bag'ishlangan tantanali marosim bo'ldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tordidi. Ikki davlat madhiyalari yangradi.

Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Emomali Rahmon faxriy qorovul safi oldidan o'tib, rasmiy delegatsiyalar a'zolarini bir-biriga tanishtirdilar.

Rasmiy kutib olish marosimidan so'ng Shavkat Mirziyoyev va Emomali Rahmon tor doirada uchrashuv o'tkazdi.

Siyosiy muloqotni rivojlantirish, savdo-iqtisodiy hamkorlikni, hududlararo aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuvni kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Yetakchilar Markaziy Osiyoning manfaatlarini ilgari surish va uning barqaror taraqqiyotini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarini birlashtirish maqsadida mintaqaviy tuzilmalar va xalqaro tashkilotlar doirasida konstruktiv hamkorlikni bundan buyon ham davom ettirishga intilishlarini tasdiqladilar.

Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi tarixiy shartnomaning imzolaniishi O'zbekiston — Tojikiston munosabatlarida sifat jihatdan yangi bosqichga o'tish ekani ta'kidlandi.

Shu ma'noda, ittifoqchilik

munosabatlarining salohiyatini ro'yogba chiqarish barcha darajadagi muloqotlar natijadorligini oshirishni taqozo etishi qayd etildi.

Ta'kidlash joizki, oxirgi yillarda tovar ayirboshlash hajmi 40 barobar o'sdi. Qo'shma korxonalar soni 15 barobar ko'paydi.

Hukumatlar oldiga tovar ayirboshlashni 2 milliard dollarga yetkazish, shu jumladan, o'zaro mahsulot yetkazib berish nomenklaturasini kengaytirish, chegaraldagi savdo zonalarini tekzor ishga tushirish vazifasi qo'yildi.

Tashrif arafasida O'zbekiston — Tojikiston biznes forumi muvaffaqiyatli o'tkazilgan bo'lib, uning yakunida yangi kooperatsiya loyihalari va savdo shartnomalarining katta portfeli shakllantirildi.

Mashinasozlik, elektrotexnika, energetika, konchilik, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik va farmatsevtika tarmoqlaridagi o'zaro manfaatli loyihalar shular jumlasidan.

Tomonlar kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha aniq rejalarini ham belgilab oldilar. Shu maqsadda qo'shma Investitsiya kompaniyasining salohiyatidan foydalaniladi.

Madaniy-gumanitar almashinuvlarni faollashtirish muhimligi qayd etildi. Kinotomoshalar, konsertlar, spektakllar, ko'rgazmalar va yoshlar forumlari mintazam o'tkazilishi ta'kidlandi. Ta'lim sohasidagi hamkorlikni kengaytirish, hamyonbop turizm dasturlarini ishlab chiqish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Davlatimiz rahbari Prezident Emomali Rahmonni o'ziga qulay bo'lgan vaqtda O'zbekistonga tashrif bilan kelishga taklif qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon muzokaralarni ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida kengaytirilgan tarkibda davom ettirdilar.

O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini, eng avvalo, siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalarida yanada chuqurlashtirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

— Keyingi yillarda oliy darajadagi o'zaro ishonch va qo'llab-quvvatlash ruhida faol muloqot natijasida mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stona munosabatlar misli ko'rilgan yuqori darajaga ko'tarildi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu bilan birga, keng ko'lamlı hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun hali ishga solinmagan ulkan salohiyat va katta imkoniyatlar mavjudligi qayd etildi.

— Bugun imzolanyotgan Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi tarixiy shartnomani amalga oshirish uchun barcha darajalarda — parlamentlar, hukumatlar, tashqi siyosiy idoralar, vazirlik va hududlar o'rtasidagi muloqotlar samaradorligini oshirish lozim, — dedi davlatimiz rahbari.

Prezidentlar chuqur sanoat kooperatsiyasini rag'batlantirish uchun energetika, elektrotexnika, metallurgiya, qazib chiqarish, to'qimachilik, farmatsevtika, agrosanoat va boshqa tarmoqlarda muhim loyihalarni birgalikda amalga oshirish bo'yicha qat'iy kelishuvlarga erishilganini olqishladilar.

Suvdan foydalanish masalalarida konstruktiv va o'zaro manfaatli muloqotni davom ettirish masalalari muhokama qilindi.

Prezidentimiz hududlararo hamkorlik uchun katta salohiyatdan samarali foydalanish, tashrif doirasida erishilgan bitim va kelishuvlarni to'liq amalga oshirish muhimligini qayd etdi.

Transport va tranzit tashishlar sohasidagi hamkorlik strategik yo'nalish sifatida ko'rsatib o'tildi. Prezidentlar bu borada o'zaro manfaatli sheriklikni kengaytirish hamda havo va temir yo'llari orqali tashishlarni rivojlantirish, tranzit yuk tashishlar hajmini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratishni qo'llab-quvvatladilar.

Tomonlar madaniy-gumanitar almashinuvni yanada faol qo'llab-quvvatlashga ahdlashib oldilar.

Zamonaviy tahdid va xatarlarga qarshi kurashishda yaqin aloqalarini davom ettirish, Afg'onistonda ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni ilgari surish muhimligi ta'kidlandi.

Mintaqaviy va xalqaro tuzilmalar doirasida o'zaro qo'llab-quvvatlashni davom ettirishga tayyorlik bildirildi.

Yig'ilish davomida Bosh vazirlar o'rinbosarlari, transport, energetika va qishloq xo'jaligi vazirlarining kun tartibi yuzasidan hisobotlari tinglandi.

Muzokaralar yakunida davlat rahbarlari qo'shma "Yo'l xaritasi"ni tayyorlash hamda erishilgan kelishuvlarni samarali amalga oshirish mexanizmlarini yo'lga qo'yishga topshiriq berildilar.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon Ittifoqchilik munosabatlarini to'g'risidagi shartnomani imzoladilar.

Bundan tashqari, davlat rahbarlari

huzurida ikki tomonlama hujjatlarni almashish marosimi bo'lib o'tdi.

Umuman, tashrif davomida O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikning deyarli barcha yo'nalishini qamrab oluvchi 28 ta hujjat, jumladan:

— Sanoat sohasida hamkorlik to'g'risida bitim;

— Sanoat mulkini muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;

— Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida bayonnomalar;

— Fanlar akademiyalari o'rtasidagi ilmiy hamkorlik to'g'risida bitim;

— Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlari, xalqaro avtomobil va aviatsiya qatnovlari to'g'risidagi bitimlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida bayonnomalar;

— Veterinariya va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi sohasida hamkorlik to'g'risida bayonnomalar;

— Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish idoralari o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida bayonnomalar;

— Madaniyat va turizm sohasidagi hamkorlik, agrosanoat majmuidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritalari";

— Andijon, Namangan, Sirdaryo, Farg'ona, Xorazm viloyatlari va So'g'd viloyati, Qashqadaryo viloyati va Xatlon viloyati o'rtasida hamkorlik to'g'risida bitimlar va 2024 — 2026-yillarga mo'ljallangan "yo'l xaritalari" hamda boshqa hujjatlar imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon mushtarak tarixiy meros, ma'naviy qadriyat va an'analarimizni asrab-avaylash va targ'ib qilish bo'yicha samarali faoliyati, shuningdek, birodar xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik rishtalarini mustahkamlashga qo'shgan munosib hissasi uchun ikki mamlakat madaniyat va san'at arboblarning bir guruhiga faxriy unvonlar berildilar.

Mamlakatimiz yetakchisining davlat tashrifi doirasida ushbu unvonlar bilan taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Tojikiston milliy konservatoriyasi rektori Mirali Do'stizoda, Tojikiston milliy konservatoriyasi dotsenti Ismoil Nazriyev, Tojikiston Hukumati huzuridagi Televideniye va radio qo'mitasining F. Shaxobov nomidagi shahmaqom ansambli rahbari Furqat Saidzoda, Bobojon G'afurov tumani shahmaqom ansambli rahbari To'liqin Tojiboyev,

A. Jo'rayev nomidagi Tojikiston davlat filarmoniyasi "Falak" ansambli badiiy rahbari Rahmatullo Xoshimov "O'zbekiston Respublikasi xalq artisti" faxriy unvoniga sazovor bo'ldi.

O'zbekiston milliy musiqa san'ati instituti Maqom xonandaligi kafedrası professori Munajatxon Yo'ichiyeva, O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov, O'zbekiston davlat filarmoniyasi "Lazgi" ashula va raqs ansambli badiiy rahbari Og'abek Sobirov va xonanda Yulduz Usmonovaga "Tojikiston xalq hofizi" faxriy unvoni, O'zbek Milliy akademik drama teatri direktori Yodgor Sa'diyevga "Tojikiston xalq artisti" faxriy unvoni berildi.

Davlat rahbarlari faxriy unvonlar nishonlarini o'z sohiblariga tantanali ravishda topshirdilar.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon oliy darajadagi muzokaralardan so'ng ommaviy axborot vositalari vakillari uchun bayonot bilan chiqdilar.

O'zbekiston Prezidenti Tojikiston Prezidenti va xalqiga har doimgidek iliqlik va samimiy qabul uchun dildan minnatdorlik bildirdi.

Tomonlar do'stlik va ishonch muhitida o'tgan oliy darajadagi uchrashuvlar yakunlarini yuksak baholadilar.

— Yana bir bor ta'kidlayman, Tojikiston O'zbekiston uchun eng yaqin, ishonchli, asrlar bilan sinalgan strategik sherikdir. Birodar o'zbek va tojik xalqlari ko'p asrlik do'stlik rishtalari bilan chambarchas bog'langan. Bizni umumiy tarix, madaniy va ma'naviy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlar birlashtirib turadi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Qardosh xalqlarimizning tub manfaatlariga to'liq mos bo'lgan Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomaning imzolaniishi ushbu tashrifning chinakam tarixiy natijasi bo'lgani qayd etildi.

— Bu qadam bilan O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi ko'p qirrali strategik sheriklik va ittifoqchilikni chuqurlashtirish bo'yicha ortga qaytmas yo'ldan yurishga qat'iy intilishimizni tasdiqladik. Ushbu muhim hujjat, hech mubolag'asiz, ikki tomonlama munosabatlarda yangi tarixiy davrni anglatadi, — dedi davlatimiz rahbari.

Savdo va sanoat kooperatsiyasini kengaytirish hamkorlikning ustuvor yo'nalishi etib belgilandi.

Keyingi yillarda bir necha o'n karra ko'paygan tovar ayirboshlash barqaror o'sib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Ikki mamlakat hukumatlari oldiga tovar ayirboshlashni, shu jumladan, uchinchi mamlakatlardan importning o'rnini faol to'ldirish orqali 2 milliard dollarga yetkazish vazifasi qo'yildi.

Kuni kecha o'tgan biznes forumida salmoqli shartnomalar va bitimlar to'plami imzolangan ushbu maqsadga xizmat qiladi.

Shuningdek, "Oybek — Fotehobod" chegaraldagi erkin savdo zonasi va "Andarxon" savdo-logistika markazini tashkil etish ishlari jadallashtirish muhimligi ta'kidlandi.

Oliy darajadagi uchrashuvlar chog'ida sanoat kooperatsiyasida, eng avvalo, ikki mamlakat bir-birini to'ldirib turgan an'anaviy tarmoqlarda yangi o'sish nuqtalari belgilab olindi.

Mashinasozlik, energetika, elektrotexnika, metallurgiya, qazib chiqarish, to'qimachilik, farmatsevtika, agrosanoat va boshqa ustuvor tarmoqlardagi qo'shma loyihalar shular jumlasidan.

Bunday muhim loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun O'zbekiston — Tojikiston investitsiya kompaniyasining salohiyatidan samarali foydalaniladi.

Suv-energetika sohasidagi hamkorlikka alohida e'tibor qaratildi. Transcheharaviy suv resurslaridan birgalikda foydalanish sohasida konstruktiv hamkorlikni davom ettirishga tayyorlik bildirildi.

Hamkorlikning yana bir strategik yo'nalishi — ikki mamlakat transport-tranzit salohiyatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish.

Yo'lovchi va yuklar tashish hajmini oshirish, zamonaviy chegaraldagi va bojxona infratuzilmasini yaratish bo'yicha qo'shma choralar ko'riladi.

Hududlararo hamkorlik salohiyatini faol ishga solish zarurligi qayd etildi.

Ko'rgazmalar, teatrlarning ijodiy safarlari, yoshlar va ta'lim forumlarini mintazam o'tkazish, sport dasturlarini amalga oshirish, turizm xizmatlarini kengaytirish orqali madaniy-gumanitar almashinuvni chuqurlashtirish masalalari muzokaralardan muhim o'rin egalladi.

Tomonlar ushbu tarixiy tashrif, uning samarali natijalari va imzolangan muhim hujjatlar ikki mamlakatning jadal taraqqiyotiga xizmat qilishi, birodar O'zbekiston va Tojikiston xalqlarining umumiy farovonligini ta'minlashiga ishonch bildirdilar.

Dushanbe shahridagi "Ko'hi Borbad" san'at saroyida O'zbekiston va Tojikiston san'at ustalari ishtirokida "Do'stlik oqshomi" bo'lib o'tdi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon konsertni birgalikda tomosha qildilar.

Ikki mamlakat san'at ustalarining bunday konsertlari xalqlarimiz o'rtasidagi abadiy va samimiy do'stlikni ifodalovchi yaxshi an'anaga aylangan. Zero, mehr-oqibatli bo'lish, tinch-totuv yashash — xalqlarimizning azaliy orzusi va samimiy intilishidir. Bugun ushbu orzu-intilishlar hayotga ko'chmoqda, mamlakatlarimiz yetakchilarining irodasi va sa'y-harakatlari tufayli xalqlarimiz yanada yaqinlashdi, davlatlararo munosabatlar ittifoqchilik darajasiga ko'tarildi.

Bu jihatlar bugungi konsert dasturida yana bir bor tasdiqlandi. Iste'dodli san'atkorlar ijro etgan kuy-qo'shiqlarda xalqlarimiz madaniyatining boyligi, o'ziga xosligi va shu bilan birga mushtarakligi o'z ifodasini topdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tojikiston Respublikasiga davlat tashrifi davom etmoqda.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.



## HAMKORLIK ALOQALARINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQADIGAN TARIXIY TASHRIF

Ma'lumki, O'zbekiston tashqi siyosatida barcha qo'shni davlatlar bilan do'stlik rishtalari va hamkorlikni mustahkamlash alohida o'rin tutadi. Shundan kelib chiqib keyingi yillarda mintaqadagi beshqa qardosh davlat bilan nafaqat ahil qo'shni, balki ayni chog'da strategik sheriklik aloqalari yo'lga qo'yildi va u tobora mustahkamlanib bormoqda. Buni qo'shni Tojikiston bilan munosabatlrimiz va turli sohalarda erishilayotgan yutuqlar misolida ham kuzatish mumkin.

### Munosabat

Bu ikki xalqni umumiy tarix, madaniyat va ma'naviy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlar, ko'p asrlar mobaynida bir-biriga bog'lab kelgan o'xshash jihatlari birlashtirib turadi. Mana shu omillar O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi munosabatlarda muhim mezon bo'lib kelmoqda. Keyingi yillarda ikki davlat rahbarlari o'rtasida yo'lga qo'yilgan o'zaro ishonchga asoslangan muloqot mamlakatlarning turli soha va yo'nalishlardagi aloqalarida alohida ahamiyat kasb etayotir. Boshqacha aytganda, oliy darajada o'rnatilgan muloqotlar hukumatlararo va idoralararo hamkorlikni mustahkamlashda poydevor vazifasini o'tab kelmoqda.

Mamlakatlrimiz o'rtasidagi yaqin qo'shni Prezidentimiz sa'y-harakatlari va tashabbuslari bilan 2017-yildan boshlab yanada yuqorilargani ko'pchilikning yodida bo'lsa kerak.

Bugun ushbu intilishlar samarasini ko'rib turibmiz. Fikrimiz quruq bo'lmasligi uchun bir nechta raqamga murojaat qilmoqchimiz. Masalan, ikki davlat o'rtasida 2021-yilda ulgurji savdo aylanmasi 605 million dollari tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib qariyb 752 million dollarga yetdi. Aytish kerakki, 150 million dollarga teng bo'lgan o'sishdagi ulushning 100 million dollarini eksport, 50 millionini esa import tashkil qilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Tojikistonga amalg o'shirayotgan bu g'ali davlat tashrifi ham aloqalarimiz izchilligini ta'minlashga hamda natija va yutuqlarimiz salmog'ini yanada o'shirishga

xizmat qiladigan voqealarga bo'lgan darajada kechayotganini alohida aytish zarur.

Masalan, oliy darajadagi muzokara yakunida ikki davlat Prezidentlari Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomani imzoladi. Alohida ta'kidlash kerakki, ushbu tashrif davomida O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikning barcha yo'nalishini qamrab olishga qaratilgan 28 ta hujjat imzolandi. Ular orasida sanoat sohasida, sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish borasida hamkorlik to'g'risidagi bitimlar, Fanlar akademiyalari o'rtasidagi ilmiy hamkorlik, madaniyat va turizm sohasidagi sheriklik, agrosanoat majmuidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritalari" hamda Andijon, Namangan, Sirdaryo, Farg'ona, Xorazm viloyatlari va So'g'd viloyati, shuningdek, Qashqadaryo viloyati va Xatton viloyati o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi bitimlar, 2024 — 2026-yillarga mo'ljallangan "yo'l xaritalari" hamda boshqa hujjatlar borligi ham istiqbolli hamkorligimiz qanday bo'lishidan darak berib turibdi. Umuman, o'zining mazmun-mohiyati va muhim hujjatlariga bo'lgan ahamiyat uchun ushbu tashrifni hamkorlik aloqalarimizning yangi davrini boshlab beradigan tarixiy voqea bo'ldi deyishimiz uchun yetarli asoslar bor.

Erkin GADOYEV,  
Oliy Majlis Senatining  
Byudjet va iqtisodiy  
ishloktir masalalari  
qo'mitasi raisi.

## XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH — MUHIM MASALA

Bugungi kunda xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi raisi Malika Qodironova boshchiligidagi ishchi guruh xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirish bo'yicha Jizzax viloyatida olib borilayotgan ishlar holatini o'rganmoqda.

Ayni jarayonda mahallalardagi ishsizlikni bartaraf etish, norasmiy tarzda faoliyat olib borayotganlarni rasmiylashtirish, ro'yxatdan o'tmasdan ishlayotgan tadbirkorlarni tegishli tartibda imtiyozli miqdordagi soliq takliflari bilan ro'yxatga olish, aholi muammolarini aniqlash va hal qilish, mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish masalalariga e'tibor qaratilmoqda.

Dastlabki o'rganish natijasiga ko'ra Jizzax shahrining "Ittifoq" MFYda o'tgan yili "ayollar haftasi"ga 365 xotin-qiz kiritilgan bo'lib, shundan 10 nafariga subsidiya asosida tikuv mashinasi, 53 nafariga tadbirkorligini rivojlantirish uchun kreditlar ajratilgan. Qolaversa, 53 nafar xotin-qiz shirinlik tayyorlash va tikish-bichish bo'yicha o'zini o'zi band qilgan, 35 nafari esa monomarkazda kasb-hunarga o'qitilgan.

Shuningdek, Jizzax shahrining "Olmazor" MFYdagi tekstil korxonasi hamda stol-stul ishlab chiqarish sexi xodimlari bilan muloqot o'tkazildi.

Ishchi guruh a'zolarining Jizzax viloyatidagi o'rganishlari davom etmoqda.

## "MAHALLA YETTILIGI" FAOLIYATI QONIQLARIMI?

Yurtimizda mahalla darajasida muammolarni aniqlash va samarali hal etish, ijtimoiy himoya tizimining manzilligi va shaffofligini ta'minlash orqali aholi yashash sharoitlarini yanada yaxshilash bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Bu borada mahallada qabul qilinayotgan qarorlarning haqoniyligi hamda asosligini ta'minlash maqsadida mahalliy Kengashlar deputatlari va "mahalla yettilligi"ning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish dolzarb ahamiyatga ega.

Shundan kelib chiqib ayni kunlarda Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi Ravshanbek Alimov boshchiligidagi ishchi guruh tomonidan Andijon viloyati fuqarolar yig'inlaridagi "mahalla yettilligi" faoliyati o'rganilmoqda.

Xususan, ishchi guruh Jalaquduq tumanidagi "Beshkaram" va "To'racheki" mahalla fuqarolar

yig'inlarida bo'lib "mahalla yettilligi", aholi va tadbirkorlik subyektlari vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazdi. Ana shu jarayonda aniqlangan kamchilik va muammolarni bartaraf etish yuzasidan aniq taklif va tavsiyalar berdi.

Ishchi guruh a'zolarining Andijon viloyatidagi o'rganishlari davom etmoqda.

Senatori istirokidagi bunday tadbirlar Toshkent shahrining Yunusobod tumanidagi "Qashqar" hamda "Sobirobod" mahalla fuqarolar yig'inlarida ham tashkil etildi.

Muloqot davomida "mahalla yettilligi" vakillari bilan birma-bir suhbat o'tkazildi. Ularga "Mahalla yettilligi" — Kengash —

## BOJXONA POSTLARIDA TADBIRKORLARGA YARATILGAN SHAROITLAR QAY DARAJADA?

Shu kunlarda Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Qutbiddin Burhonov boshchiligidagi ishchi guruh Toshkent viloyati va Toshkent shahar bojxona postlarida o'rganishlar olib bormoqda.

Navbatdagi manzil — Toshkent viloyati bojxona boshqarmasi tasarrufidagi "Yallama" chegara bojxona posti bo'ldi.

Ishchi guruh a'zolari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy

faoliyat jarayonlarini amalga oshirishdagi muammolar o'rganilib, ularga bojxona sohasida yangi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar xususida ma'lumot berildi.

Bundan tashqari, o'rganish jarayonida ishchi guruh a'zolari

chegara bojxona postida tovar va transport vositalarini nazoratdan o'tkazishda va kontrabanda ashyolarini noqonuniy olib o'tishga qarshi kurashishda foydalaniladigan maxsus texnika vositalarining ishlash jarayoni bilan tanishdi.

Senator tomonidan chegara bojxona posti mas'ul rahbarlariga bojxona qonunchiligi ijrosini ta'minlash, yo'lovchi va haydovchilar bilan muloqotda xushmuomala bo'lish, postga

kirib kelishdan tortib bojxona rasmiylashtiruvchi yakunlangunga qadar jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi.

Ishchi guruh a'zolarining Toshkent viloyati va Toshkent shahar bojxona boshqarmalari tasarrufidagi chegara va tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona postlaridagi o'rganishlari davom etmoqda.

"Xalq so'zi".

## YOSH PARLAMENTARIYLAR O'ZARO FIKR ALMASHDI

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati hamda Belarus Respublikasi Milliy Majlisi huzuridagi Yoshlar parlamentlari vakillari o'rtasida videokonferensaloqa shaklidagi uchrashuv bo'lib o'tdi.

### Muloqot

Unda ikki mamlakat parlamentlarining yosh a'zolari o'z davlatida yoshlarning huquqiy va siyosiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan amaliy choralar ko'rilayotgani to'g'risida ma'lumot berildi.

Yosh parlamentariylarimiz jamoatchilik monitoringini olib borish maqsadida

o'nga yaqin vazirliklar bilan uchrashuvlar tashkil etilgani va hamkorlikda qator loyihalar yo'lga qo'yilayotgani, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida bog'lar tashkil qilinyotgani hamda yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan xavfsiz va samarali foydalanishi bo'yicha amaliy choralar ko'rilayotgani to'g'risida ma'lumot berildi.

Uchrashuvda tomonlar 2024-2025-yillarga mo'ljallangan

hamkorlik memorandumini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni imzoladi.

"Yo'l xaritasi"da O'zbekiston Respublikasi va Belarus Respublikasi yoshlar siyosatining dolzarb masalalari bo'yicha davra suhbatlari, har ikki davlatda tahsil olayotgan va ishlayotgan yoshlar bilan yuzma-yuz yoki masofadan turib uchrashuvlar hamda turli tadbirlarni o'tkazish ko'zda tutilgan.

Uchrashuv yakunida tomonlar o'zaro manfaatli sohalarida samarali hamkorlikni rivojlantirishga tayyor ekanligini bildirdi.

"Xalq so'zi".

### Seminar

Agrar soha:

## HOSILDORLIK VA RENTABELLIK

Oliy Majlis Senatining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi tomonidan Qishloq xo'jaligi vazirligi va O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari uyushmasi bilan hamkorlikda "Qishloq xo'jaligida zamonaviy texnikalarni qo'llashning atfalklari va samardorligi" mavzuida seminar o'tkazildi.

Qayd etilganidek, oxirgi yillarda qishloq xo'jaligida ilmiy tadqiqot faoliyati samardorligini kengaytirish, innovatsion texnologiyalar, ilm-fan yutuqlarini keng joriy etish, agrar sohada ilg'or texnikalarni qo'llash borasida muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida qishloq xo'jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish bo'yicha bir qator samardorlik ko'rsatkichlariga erishish belgilab berilgan bo'lib, bu borada ham salmoqli sa'y-harakatlar olib borilmoqda.

Jumladan, 2030-yilgacha hosildorlik ko'rsatkichini paxta bo'yicha o'rtacha 45 — 50 sentnerga, g'allada 80 — 85 sentnerga, sabzavot, poliz, kartoshka urug'lik ta'minoti 50 foizga, eksport hajmini yiliga 10 mlrd. dollarga yetkazish hamda sohaga 15 mlrd. dollar miqdorida investitsiya jalb qilish, bir gektardan olinadigan o'rtacha daromadni 5 ming dollarga yetkazish kabi muhim ko'rsatkichlar ko'zda tutilgan.

Mazkur ustuvor vazifalar va samardorlik ko'rsatkichlariga erishishda agrar sohani zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlash o'ta dolzarb masala hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib ichkil chora-tadbirlar ko'rilayotir. Masalan, ishlab chiqarishning yangi mexanizmi, ya'ni klaster tizimi yo'lga qo'yilib, faoliyat qo'llab-quvvatlandi va ularda "amaliyot — ilm — innovatsiya" tizimi uyg'unlashtirildi. Natijada

mahalliyashtirish qishloq xo'jaligi mashinalarida o'rtacha 60, g'allada o'rish kombaynlarida 30, traktorlarda 25 foizga yetkazildi.

Sohada lizing tizimining raqobat asosida faoliyat yuritishiga ham keng imkoniyat yaratildi. Lizing kompaniyalari mahsulot yetishtiruvchilarga moliyaviy ko'mak ko'rsatuvchi tizim sifatida alohida qo'llab-quvvatlandi. Muhimi, dehqon va fermerlar uchun moliyaviy yengilliklar yaratildi.

Tadbir shu kabi yutuqlar barobarida agrar sohani zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlash borasida ayrim muammolar borligi ta'kidlanib, ularni bartaraf etish masalasi chuqur tahlil qilindi.

Xususan, qishloq xo'jaligi texnikalari ma'nan eskirgani, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi qoniqsiz ekanligiga e'tibor qaratildi.

Seminar qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy qilishdagi mavjud muammolarni tahlil etish orqali ilmiy xulosalar asosida uni rivojlantirish istiqbollari belgilash bo'yicha yaxit tizim yaratish yuzasidan fikr almashildi.

Shuningdek, sohada ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini yangi bosqichga olib chiqish va qishloq xo'jaligi mashinasozlik korxonalarida mahalliyashtirish darajasini oshirish zarurligi urgulandi.

Seminar yakunida sohani rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqildi.

"Xalq so'zi".

## INSONPARVARLIK TAMOYILI VA QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR

### AHOLI BILAN UCHRASHUVLARNING BOSH MAVZUSI BO'LMOQDA

Shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari xalq bilan ochiq muloqot qilish, ijtimoiy soha obyektlari, tadbirkorlik subyektlari faoliyati bilan tanishish maqsadida hududlarda uchrashuvlar o'tkazmoqda. Ochiq muloqotlarda mamlakatimizda inson qadrini ulug'lash, huquq va erkinliklarini kafolatlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, qonunchilikdagi yangiliklar, parlamentda insonparvarlik tamoyillari asosida fuqarolar manfaatlaridan kelib chiqib qabul qilinayotgan qonunlarning mazmun-mohiyatiga alohida e'tibor qaratilib, bu bo'yicha keng ma'lumotlar taqdim etilayotir.

### Deputatlar — hududlarda

#### Ta'sirchan parlament nazorati — amalda

Parlament quyi palatasi Spikeri O'rinosari, O'zLiDeP fraksiyasi rahbari Aktam Xaitov boshchiligidagi bir guruh deputatlardan iborat ishchi guruh a'zolari Jizzax viloyatida aholi bilan muloqotlar o'tkazdi.

Ishchi guruh a'zolari dastlab Mirzacho'l tumani hokimligi masalalarini hamohligida tumandagi "Kamels Cattle" ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi dalasida agrar soha xodimlari bilan suhbatlashdi.

Mazkur fermer xo'jaligi paxta, g'alla, chorva va poliz mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirilgan bo'lib, bu yerda 10 ta doimiy va 30 ta mavsumiy ish o'rinalari yaratilgan. Fermer xo'jaligi a'zolari o'tgan yili 50 ming dollarlik poliz mahsulotlarini eksport qildi. Ayni paytda xo'jalikda chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha yangi loyihalar amalga oshirilmoqda.

Fermer xo'jaligi dala shiyponida bo'lib o'tgan ochiq muloqot chog'ida Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan yangi qonunlar, jumladan, yer uchastkalariga bo'lgan mulk va ijara huquqini e'tirof etishga qaratilgan qonunning mazmun-mohiyati atroficida tushuntirildi. Xususan, ushbu qonun orqali o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda

quyidagi binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etishning aniq tartibi belgilanayotgani aytilib o'tildi.

Uchrashuvda Mirzacho'l'da Sayxunobod tajribasini ommalashtirishga qaratilgan fikr-mulohazalar bildirildi, o'z navbatida, mirzacho'llik agrar soha xodimlari o'zlarini o'yantirayotgan masalalar yuzasidan deputatlarga bevosita murojaat qilish, barcha savollariغا batafsil javob olish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Ishchi guruh a'zolarining keyingi uchrashuv manzili — "Faxr Mumin Tekstile" korxonasi bo'ldi. 2021-yilda ishga tushgan mazkur korxonada ayni paytda 130 nafar ishchi-xodim doimiy ish bilan ta'minlangan. Ularning aksariyatini xotin-qizlar tashkil qiladi.

Deputatlar korxonada faoliyati bilan yaqindan tanishib, mirzacho'llik chevarlar bilan suhbatlashdi, ularning samarali mehnat qilishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni ko'zdan kechirdi.

Viloyatdagi uchrashuvlar davomida aholi va jamoatchilik vakillari so'nggi yillarda Prezidentimiz rahbarligida barcha sohada amalga oshirilayotgan islohotlar har bir insonning kundalik hayotida sezilayotganini, odamlarning yashash sharoitlari yaxshilanganini qayd etdilar.

Ishchi guruh a'zolari Prezidentimiz

#### Saylovchilar takliflari eshitildi

Qonunchilik palatasi deputatlari Shuhrat Sharafutdinov va Mavluda Ibragimovaning Farg'ona viloyatining Buvayda tumanidagi aholi bilan o'tkazgan uchrashuvlari nihoyatda qiziq'inchilikli bo'ldi.

Uchrashuvda dastlab qonunchilikdagi so'nggi yangiliklar, jumladan, "O'zbekiston — 2030" strategiyasidagi 5 ta ustuvor yo'nalish va 100 ta maqsadning mazmun-mohiyati, xususan, ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ayollar bandligini ta'minlashga oid ustuvor vazifalar yuzasidan ma'lumotlar berildi.

Ayni chog'da "mahalla yettilligi" faoliyati yo'lga qo'yilgani joylarda aholi muammolarini samarali hal etish imkonini berayotgani, fuqarolar bilan ishlashning bunday tartibi davlat organlari va aholi o'rtasida o'zaro yaqinlik hamda ishonchli hamkorlikni yangi pog'onaga olib chiqayotgani alohida qayd etildi.

Muloqotlarda saylovchilarning fikr-mulohazalari, takliflari eshitildi. Shu bilan birga, aniqlangan ayrim masalalar yechimi nazoratga olindi.

#### Yangi mikroavtobuslar qatnovi yo'lga qo'yildi

Qonunchilik palatasi deputati Gulbahor Saidq'aniyevning Farg'ona viloyati, Bag'dod tumanida aholi bilan

uchrashuvlari saylovchilarning faolligi va qiziq'inchilik bilan o'tkazildi.

Xususan, tumandagi "Qo'shtegimon" MFYda joylashgan 40-umumiy o'rta ta'lim maktabida bo'lib o'tgan uchrashuvda keyingi yillarda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ichkil islohotlar, qonunchilikdagi yangiliklar haqida ma'lumot berildi.

Bag'dod tumani "Qo'shtegimon-1" va "Qo'shtegimon-2" MFYda yashovchi aholi vakillari bilan o'tgan muloqotlar davomida fuqarolarni o'yantirib kelayotgan masalalar o'rganildi va muntasaddi idora vakillari bilan ularga ijobiy yechim izlandi.

Ma'lum bo'lishicha, mazkur mahallalar tuman markazidan 16 — 18 kilometr olisda joylashgan. Aholi tuman markaziga borib kelishda transport taqchilligi va yo'l haqining qimmatligidan aziyat chekishi aytildi.

Deputat tumandagi aholiga transport xizmati ko'rsatuvchi "Sohibtrans" MCHJ vakillari bilan birga ushbu muammoni tezkor hal etish choralarini ko'rdi. Mahalla aholisi uchun yangi mikroavtobus qatnovi yo'lga qo'yildi. Yo'l haqi ham ancha arzonlashtirildi.

Samimiy muloqotlar chog'ida deputat aholi vakillariga quyi palata tomonidan qabul qilingan qonun loyihalari, jumladan, mulk va ijara huquqini e'tirof etishga qaratilgan qonunning mazmun-mohiyati hamda ahamiyatini tushuntirdi.

#### Murojaatlar nazoratga olindi

Qonunchilik palatasi deputati Navroz Rizayev hamda O'zLiDeP faollari istirokidagi Samarqand agroinovatsiyalar va tadqiqotlar institutida davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

Ma'lum qilinganidek, bugungi kunda ushbu ilm maskanida 15 yo'nalishda agrar soha uchun zamonaviy mutaxassislar tayyorlanmoqda. Yil

"Xalq so'zi".





## "YASHIL MAKON" VIJDON ISHIDIR

**Daraxt va butalarning inson hayotidagi ahamiyati qanchalik muhimligi barchamizga yaxshi ayon. Ko'kka bo'y cho'zib turgan salobatli dov-daraxtlar, ko'kalamzor joylar ko'zni yashnatishi bilan birga, havo musaffoligini ham ta'minlaydi. Yashayotgan makonni yashillikka burkash, bog'u bo'stonlar barpo etish inson hayotini boqiylikka daxldor qiladi.**

### Aks sado

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi mamlakatimizda ekologik vaziyatni yanada yaxshilash hamda iqlim o'zgarishlariga milliy yechim sifatidagi noyob loyiha bo'ldi, desak, yangilishmaymiz. Zero, ushbu loyiha zamirida avtomobil va turli rusumdagi mashinalar, logistika va texnika vositalari qurshovida qolgan makonga asl tabiatni tufha etish, ko'chat ekish va bog' yaratish yotadi.

Loyihaga ko'ra har yili 200 million tup daraxt va buta ko'chatining ekilishi BMT Iqlim o'zgarishlari bo'yicha Parij bitimi doirasida 2030-yilgacha uzoq muddatli istiqbolida O'zbekiston Respublikasi iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish chora va harakatlarni kuchaytirish borasida olgan xalqaro majburiyatning amaliy yechimidir.

Prezidentimiz raisligida shu yil 29-mart kuni "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi ishlar hamda chiqindilarni boshqarishni takomillashtirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham ushbu yo'nalishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab berildi. Xususan, yo'llar va kanallar bo'yidagi yerlarni talabgorlarga to'g'ridan-to'g'ri shartnoma asosida 10 yilga berib, 5 qatordan ko'chat ekitirish tizimini hozirgi mavsumda amalga oshirish orqali ko'plab daraxtzorlar yaratish, bu yil topshiriladigan 2,5 mingta ko'p qavatli uy hududining 30 foizida, 38 ta "Yangi O'zbekiston" massivining har birida kamida 1 gektardan yashil xiyobonlar tashkil qilinishi belgilandi. Shuningdek, ijtimoiy muassasalarga 4 milliondan ziyod ko'chatlar bepul yetkazib berildi.

Boisi yashil maskanlar, istirohat bog'lari qancha ko'p bo'lsa, odamlarimiz ularda shuncha maroqli horidq chiqaradi. Oxirgi yillarda aholi punktlarini ko'kalamzorlashtirish, yashil maydonlarni kengaytirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilayotganining sababi ham shunda. Birgina 2023-yilning ko'chat ekish mavsumida 200 milliondan ortiq daraxt va buta ko'chatlari ekildi. So'nggi besh yilda esa Orol dengizining qurigan tubida qariyb 2 million gektardan ortiq maydonda qurg'oqchilikka va sho'rga chidamli o'simlik ko'chatlari ekildi yoki urug'larini sepildi.

Ushbu jarayonga deputatlik korpusi vakillari ham o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Jumladan, joriy yil 4-mart kuni O'zbekiston Ekologik partiyasi faollari

hamda uning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyasi tomonidan Orolbo'yi hududida o'rmonzorlar barpo etishga hissa qo'shish, shuningdek, dolzarb ekologik muammolarni hal qilishga keng jamoatchilik e'tiborini qaratish maqsadida Mo'ynoq tumanida "Parlamentning Orolga nigohi" mavzuida xayriya hashari tashkil etildi.

Sirasini aytganda, so'nggi yillarda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi ishlar keng quloq yo'ldi. Chunki katta yo'llar chetiga o'n qatordan daraxt ekish tashabbusi shovqini uyush barobarida, avtotransportlardan chiqayotgan zaharli gazlarni ham tozalab beradi. Daraxtning shu kabi xususiyatlari, uning tabiatdagi o'rni qanchalik muhim ekanini bilgan kishi ushbu loyihaning ahamiyatini yurak-yurakdan his qiladi.



**O'z navbatida, parlament tomonidan sohadagi qonunchilikni yanada takomillashtirishga doimiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, so'nggi bir yil davomida bu bo'yicha 7 ta qonun qabul qilindi. Shundan 3 ta qonun loyihasi bevosita quyi palata deputatlar tomonidan ishlab chiqilib, qonunchilik tashabbusi huquqi asosida kiritilganini alohida qayd etish joiz. Masalan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda daraxtlar va butalarning qimmatbaho navlarini kesishga olib keladigan loyiha hujjatlarini ishlab chiqarish uchun ma'muriy javobgarlik belgilandi. Shuningdek, daraxtlarni qonunga xilof ravishda kesganlik, kundakov qilganlik yoki shikastlantirganlik uchun ma'muriy jazo choralarini kuchaytirilib, bir-birini takrorlovchi normalar chiqarib tashlandi.**

"O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonunda esa o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar qimmatbaho navlarini qonunga xilof ravishda kesgan yoki yo'q qilgan shaxslarga kompensatsiyaviy daraxt va buta ko'chatlarini ekish hamda ularni uch yil davomida parvarish qilish majburiyati

belgilandi. Daraxtlarning qimmatbaho navlarini qonunga xilof ravishda kesganlik yoki yo'q qilganlik uchun yuridik shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar joriy etildi.

2023-2024-yillar davomida Qonunchilik palatasi majlisida sohada amalga oshirilayotgan ishlar uzasidan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirining ikki marotaba hamda O'rmon xo'jaligi agentligi direktorining bir marotaba axboroti eshitildi. Qonunchilik palatasi qo'mitalari tomonidan ushbu yo'nalishdagi qonunchilik hujjatlarining ijro etilish holati 6 marotaba nazorat-tahlil tartibida o'rganildi.

Deputatlar har o'nying oxirgi haftasida o'z saylov okruglariga chiqqanida loyiha doirasida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarining mohiyati va ahamiyatini saylovchilarga yetkazish hamda hududlarda bu boradagi ishlar holati monitoring qilinmoqda. Birgina joriy yilning birinchi choragi davomida deputatlar tomonidan OAVda ekologiya masalalari bo'yicha 200 ga yaqin maqola, munosabat va boshqa axborot materiallari e'lon qilingan.

Videoselektor yig'ilishida belgilangan

vazifalar bu borada parlament nazoratini yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda. Shundan kelib chiqib, quyi palata tomonidan sohada amalga oshiriladigan ishlarini samarali tashkil qilish va nazorat-tahlil tadbirlarini kuchaytirish maqsadida bir qator vazifalar belgilab olindi. Unda qator qonun loyihalari ishlab chiqish, parlament nazorati tadbirlarini o'tkazish, joylarda o'rganishlar olib borish nazarda tutilmoqda.

Shaharsozlikka doir qonun hujjatlariga ko'kalamzorlashtirish borasidagi majburiyatni kiritish, brakonyerlikka qarshi javobgarlikni yanada kuchaytirish, "Chiqindilar to'g'risida"gi Qonunning yangi tahrirdagi loyihalari ishlab chiqish shular jumlasiga kiradi.

Bu borada "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida joylarda targ'ibot-tashviiq ishlarini kuchaytirish bilan birga, amalga oshirilayotgan ishlar ustidan samarali va ta'sirchan parlament va jamoatchilik nazoratini o'rnatamiz. Zero, milliy qadriyatlarimiz va an'analarga sodiqlik timsoli sifatida mamlakatimiz hududini bog'u bo'stonga aylantirishga yo'naltirilgan loyiha doirasidagi tadbirlarda faol ishtirok etish orqali yangi O'zbekistonning "yashil" taraqqiyoti uchun o'z hissasini qo'shgan bo'lamiz.

**Xayrullo G'AFFOROV,**  
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari,**  
**O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi rahbari.**

## "INVESTITSIYA KIRITISH ISTAGIDAGI XITOIY KOMPANIYALARI XORAZM VILOYATIGA, ALBATA, BORISHI KERAK"

Xorazm viloyati delegatsiyasining Xitoy Xalq Respublikasiga amaliy safari doirasida ushbu mamlakatning yirik muzofotlari va shaharlarida viloyatning savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va turizm salohiyatiga bag'ishlangan forum hamda taqdimotlar o'tkazilmoqda.

### Dunyo nigohi

Ana shunday tadbirlardan biri Xitoy poytaxti Pekin shahrida tashkil etildi. Uda yirik kompaniya va ishlab chiqarish korxonalar vakillari, tadbirkorlar, sayyohlik agentliklari, ishlabarmon doira vakillari qatnashdi. O'tkazilgan taqdimotlar davomida Xorazm viloyatining investitsiyaviy imkoniyatlari va sayyohlik sohasida hamkorlik uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar haqida ma'lumot berildi.

Xorazm viloyati salohiyatiga bag'ishlab Shensi muzofoti Sian shahrida o'tkazilgan navbatdagi taqdimot ham qiziqarli kechdi.

Tadbirda Shensi muzofoti va Savdoni rivojlantirish assotsiatsiyasi rahbariyati, mazkur hududning 300 ga yaqin kompaniyalari, savdo-iqtisodiy hamda sayyohlik uyushmalari, ishlabarmon doira va OAV vakillari ishtirok etdi.

Yig'ilganlarga Xorazm viloyatida amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi islohotlar, investorlar uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida atroflicha ma'lumot berildi. Ushbu mavzuda maxsus videoroliklar namoyish etildi.

Shuningdek, tadbirda O'zbekistonning turizm salohiyati va bu sohada o'zaro hamkorlik istiqboliga haqida fikr yuritildi.

Taqdimot ishtirokchilari O'zbekistonga borishga va Xorazm viloyati bilan qo'shma loyihalarni amalga oshirishga katta qiziqish bildirdi.

Tadbirda so'zga chiqqan Shensi muzofoti Xalq hukumati hokimining o'rinbosari Chen Chunyan Xorazm viloyatining turli sohalardagi imkoniyatlarini yuqori baholab, hududlar o'rtasida ko'p tomonlama aloqalarni yanada rivojlantirish muhimligini ta'kidladi.

Shuningdek, taqdimot davomida Xitoy ishlabarmonlarini qiziqtirgan savollarga Xorazm

viloyati mutasaddilari batafsil javob berdi. Tadbirning ikkinchi qismida O'zbekiston va Xitoy biznes vakillari o'rtasida "B2B" va "G2B" shaklidagi muzokaralar o'tkazildi.

Tor doiradagi uchrashuvlarda turli sohalarda o'zaro manfaatli hamkorlik yo'nalishlarida



loiyahalarini amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi va o'zaro sheriklikni yo'lga qo'yish bo'yicha bir qator hujjatlar imzolandi.

Xorazm viloyati delegatsiyasining Xitoyga tashrifi davom etmoqda.

**Van SYUESZYUN,**  
**"China Railway Group" kompaniyasi bosh direktori o'rinbosari:**

— Xitoyning Sian shahrida Shensi muzofoti va O'zbekiston o'rtasida bo'lib o'tgan taqdimotda ishtirok etish barchamizga mamnuniyat bag'ishlaydi.

Xitoy va O'zbekistonni o'zaro do'stona aloqalar hamda ko'p tomonlama hamkorlik birlashtirib turadi. Umid qilamizki, ushbu savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va turizm forumi hamkorlik rishtalarini yanada mustahkamlashda muhim omil bo'ladi.

Men Xitoy temir yo'llari sohasida faoliyat yuritaman. Bugun bu yerga mamlakatimizdan kelgan hamkasblar bilan fikr almashdik. Bizda yaxshi qurilish loyihasi bor. Umid qilamizki, loyihamiz muvaffaqiyatli bo'ladi.

**Yan SZI,**  
**Markaziy Osiyo bo'yicha Shensi standartlar tadqiqot markazi eksperti:**

— Shensi muzofoti hukumati va O'zbekistonning Xitoydagi elchixonasi tomonidan Sian shahrida uyushtirilgan savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va turizm forumida ishtirok etdik. Va o'tkazilgan taqdimot hamda ma'ruzalar davomida yurtingizning Xorazm viloyati, u yerda xorijiy investorlar uchun yaratilgan qulayliklar haqida bilib oldik.

Tadqiqot markazimiz Shensi muzofotida bozorni tartibga solish bilan bog'liq



jamoat tovarlari uchun amaliy bo'limgir. Ma'lumki, hozirgi kunda O'zbekistonda Xitoyga yo'ntirilishi mumkin bo'lgan 20 toifadagi mahsulotlar mavjud. Mamlakatimizga eksport qilinadigan mahsulotlar Xitoy sifat va qadoqlash standartlariga mos kelishi kerak. Shensi standartlar tadqiqot markazi bu borada yaqin ko'makchi bo'ladi.

**Chjan SZIN,**  
**tadbirkor:**

— Bugungi taqdimotda ishtirok etib, Xorazm viloyatidagi investitsiyaviy muhit haqida ko'plab qiziqarli ma'lumotlarni oldik. Biz Xorazm viloyati bilan qurilish sohasida hamkorlikni yo'lga qo'ymoqchimiz va yaqin kunlarda mamlakatimizga borish rejamiz bor.

Men, shuningdek, Xenan kompaniyalarining Markaziy Osiyoga, xususan, O'zbekistonga kirishini va qo'shma loyihalarda ishtirok etishini juda xohlayman.

Investitsiya kiritish istagidagi Xitoy kompaniyalari Xorazm viloyatiga, albatta, borishi kerak deb hisoblayman.

**"Dunyo" AA,**  
Pekin

# ZAMONAVIY ILM VA TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA HAR QANDAY KASALLIKNI YENGISH MUMKIN

Taniqli vatandoshimiz, onkologiya sohasidagi yirik mutaxassis, tibbiyot fanlari doktori, professor Dilshod Zukirovich Zukirovich "Javey bilan Toshkent shahrida, u kishining 75 yillik qutlug' tavallud ayomi arafasida uchrashdik. Domla, an'anaga ko'ra, hayotidagi ana shunday quvonchli voqealarni kindik qoni tomgan tabarruk diyov — O'zbekistonda nishonlaydi.

Suhbatdoshimiz Toshkent viloyatining Parkent tumanida tug'ilib voyaga yetdi, tuz-nasiba ekan, keyinchalik qardosh Tojikiston zaminida mashhur olim va mohir jarroh bo'lib shakllandi. Bugungi kunda esa Moskva shahrida yashab, P. Gersen nomidagi ilmiy-tadqiqot institutida faoliyat yuritmoqda. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va Yevroosiyo

mamlakatlarning Onkologiya va rentgen radiologiyasi markazlari hamda institutlari direktorlar assotsiatsiyasining vitse-prezidenti, turli mamlakatlarning onkologlar jamiyatlariga zosi sifatida onkologik kasalliklarni ilmiy o'rganish va davolash bo'yicha xalqaro aloqalarni rivojlantirish masalalari bilan shug'ullanib kelmoqda. O'z hayotini inson salomatligini asrashdek ulug' ishga bag'ishlagan muhtaram yurdoshimiz Tojikiston Milliy fanlar akademiyasi hamda AQSH Akademik jamiyatining akademigi hisoblanadi.

E'tiborlisi, Dilshod Zukirovich "Javey tez-tez O'zbekistonda bo'lib, hamkasblariga zarur maslahatlarni beradi, yurtingiz tibbiyot xodimlariga xorijlik mutaxassislar bilan tajriba almashishda yordam ko'rsatib keladi.



chekish keng tarqalib borayotgani tufayli dunyoda ushbu turdagi kasallikka chalinganlar bo'yicha statistik ko'rsatkich o'sib bormoqda.

Atrof-muhitning holati ham bu boradagi vaziyatga ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, avtomobilardan chiqayotgan zararli gazlar o'pka traxeyasidagi o'smalarga sabab bo'layotgani isbotlangan. Belgiyalik olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra gavjum chorrahalariga yaqin yillarda yashaydigan aholi onkologik kasalliklarga ko'proq chalinayotgani ma'lum bo'ldi.

Albatta, kasallikka chalinishda muayyan iqlim sharoitlarining ham ta'siri mavjud. Misol uchun, Yevropa mamlakatlari aholisi o'rtasida o'pka saratoni tez-tez uchrayotgan bo'lsa, Osiyo mamlakatlari aholisi quyosh radiatsiyasi tufayli teri saratoni bilan ko'proq kasallanadi.

**Saratoni davolaydigan doridarmon bormi?**

— Bugungi kunda onkologik kasalliklarni davolash uchun bir qator dori vositalari qo'llanilmoqda. Bu target preparatlaridir. Hozirgi vaqtda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda konservativ davolash usuli xirurgik davolashdan ko'ra ko'proq qo'llanilmoqda. Bunday usuldan foydalanilganida bemorlarning yashab qolish ko'rsatkichi va hayot sifati operatsiya qilinganidan keyingi holatdan yomon emas, hatto ba'zi holatlarda undan yaxshi ham.

Bunda o'smaga qarshi yuqori samarali va inson organizmi uchun zarari kamroq bo'lgan preparatlardan foydalanilmoqda. To'g'ri, bunday preparatlar juda qimmat turadi. Nega deganda, ularni yaratish uchun tadqiqotlar olib borish, dunyodagi yuzlab yetakchi olimlar, ilg'or laboratoriya va institutlar ishtirokida tajribadan o'tkazish o'nlab yillarni talab etadi. Tabiiyki, bularning barchasi doring tanaxriga ta'sir qiladi. Lekin, bilim, mizki, keyinchalik bunday dorilarning narxi tushib, sotib olish imkoniyati kengayib boradi.

**Dilshod Zukirovich, savollaringiz uchun rahmat. Oxirgi savol, aytinch, siz onkolog shifokor, shu sohani yaxshi biladigan olim sifatida nimani orzu qilasz?**

— Dunyoda inson hayotidan, uning sog'lig'idan ortiq ne'mat, boylik yo'q. Shunday ekan, men, birinchi navbatda, onkologik kasalliklardan aziyat chekayotgan insonlar kam bo'lsa, deymen. Shifoxonalarimizda faqat va faqat o'z ishini ustasi bo'lgan yuqori malakali tibbiyot xodimlari ishlashini istayman.

Yuqori texnologiyalar kasalliklarga tashxis qo'yish va davolashni rivojlantirishga nihoyatda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, shu bilan birga, ulam shifokorini bormordan uzoqlashtiradi. Axir bemor uchun shifokorga bo'lgan ishonch, u bilan dardlashish, qalb kechinmalari bilan bo'lishish naqadar zarur ekanini isbot qilmaydigan haqiqat-ku! Men ko'p yillik tajribamdan kelib chiqib aytamanki, aynan bemor va shifokor o'rtasidagi o'zaro ishonch hamda samimiy muloqot kasallikni yengib o'tishda 50 foiz muvaffaqiyatni ta'minlaydi.

Insoniyat o'z tarixi davomida o'lat, vabo, sil, qizamiq kabi ko'plab dahshatli kasalliklar ustidan g'alaba qozongan. Keyingi yillarda onkologlar ayollarda uchraydigan bir qator saraton kasalliklarini muvaffaqiyatli davolashni o'rganishdi. Men vaqti kelib, ushbu xastalik ustidan to'la-to'kis g'alaba qozonilishiga ishonaman. Buning uchun ilm-fanni qo'llab-quvvatlashimiz va rivojlantirishimiz, sohada hamkorlikni chuqurlashtirishimiz, odamlar hayotini yaxshilash, tibbiy yordamni rivojlantirish va undan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun zarur bo'lgan barcha chorani ko'rishimiz lozim.

Kelgusi haftada Tojikiston Respublikasi poytaxti Dushanbe shahrida MDH mamlakatlari onkologlarining 16-syezdi bo'lib o'tadi. Unda O'zbekistonda ham yosh mutaxassislar, shuningdek, tajribali shifokorlar, olim va amaliyotchilar ishtirok etadi. Biz onkologiyaning eng dolzarb muammolarini ko'rib chiqamiz. Umid qilamanki, ilmiy muhokama va muloqotlar ushbu kasallikka qarshi kurashish hamda oldimzda turgan o'g'a muhim vazifalarni hal etishda navbatdagi muhim qadam bo'ladi.

**Jurnalist Feruza KUBAREVA**  
subhatlashdi.

### Intervyu

— Onkologik kasalliklarning ko'payib borayotgani bugungi kunda butun insoniyatni tashvishga solayotgan muammodir, — deydi olim. — Jahon sog'lig'ini saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda dunyo miqyosida 19 milliondan ziyod insonlar saraton xastaligiga chalingan va 9,7 million nafar kishi ana shu darddan vafot etgan.

MDH, jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlari bu boradagi ko'rsatkichning o'sib borayotgani, meningcha, zamonaviy diagnostikaning imkoniyatlari, ya'ni xavfli o'smalarni aniqlash darajasining oshishi bilan bog'liq.

O'zbekistonda keyingi yillarda onkologik kasalliklarni davolash bo'yicha yordam ko'rsatish xizmatini rivojlantirish borasida jiddiy qadamlar qo'yilayotganini yaxshi bilaman. Bu sohada maxsus dasturlar amalga oshirilmoqda, ixtisoslashtirilgan markazlarni tashkil etish, tashxis qo'yish va davolashning ilg'or, yuqori texnologik usullarini, xususan, skrining dasturlarini joriy qilish, bemorlar uchun qulay sharoitlarni yaratish va davolash samaradorligini oshirish, kadrlar salohiyatini mustahkamlashga katta-katta mablag'lar ajratilmoqda. Jahondagi yetakchi markazlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

— **Haqiqatan ham, hozirgi kunda tibbiyot sohasi juda tez rivojlanmoqda.**

**Ammo odamlar hali ham saratonni o'lim bilan tugaydigan bedavo dard sifatida qabul qilishmoqda...**

— Albatta, onkologiya sohasida hal qilinishi zarur bo'lgan muammolar hali ko'p. Ulardan biri va eng jiddiy tashvish uyg'otadigan — aholining onkologik xastaliklarni keltirib chiqaradigan omillar, kasallikning tabiati, profilaktikasi, diagnostikasi hamda davolash borasidagi imkoniyatlar haqida yetarlicha bilim va ma'lumotlarga ega emasligi bilan bog'liq.

— **Dilshod Zukirovich, aytinch, siz o'zingiz onkologiyada keng tarqalgan tushuncha va tasavvurlarga qo'shilasizmi yoki ularni inkor etasizmi? Saraton chindan ham bedavo kasallikmi?**

— Bugungi kunda agar kasallik erta bosqichlarda aniqlansa, saratonning ko'plab turlarini muvaffaqiyatli davolash mumkin. Zamonaviy yuqori texnologiyalar hatto eng kichik hajmdagi o'smani ham aniqlash imkonini beradi. Kasallikning aniq tashxis qo'yilgach kompleks tarzda, ya'ni xirurgik, kimyoviy, nur yordamida yoki gormonal va immunoterapiya yo'li bilan davolash choralari belgilanadi.

Kasallikning oxirgi bosqichlarida esa 90 foizdan ziyod holatlarda bemorlar umrini uzaytirish va ularning hayot sifati yaxshilash imkonini beradigan palliativ terapiya usuli bilan davolash tavsiya etiladi. Ko'plab mamlakatlarda og'ir kasallarni parvarish

qilish uchun xospislar ochilmoqda. Afsuski, Markaziy Osiyo mamlakatlarida tibbiy yordamning ushbu turi yetarli darajada rivojlanmagan. Menimcha, bunday holat xalqimizning mentaliteti bilan bog'liq bo'lib, bemorning yaqinlari, har qanday qiyinchilikka qaramasdan unga o'z uyida, oilasi davrasida g'amxo'rlik qilishni ma'qul ko'radi.

Shu o'rinda bir jihatga e'tibor qaratishni istar edim. Malakali tibbiy yordamga muhtoj bo'lgan ko'plab odamlar hali ham giyohlardan tayyorlangan bitta damlama bilan kasalliklarni "davolaydigan" soxta tabiblarga murojaat qilayotgani meni qattiq tashvishga soladi. Ko'p yillik tajribam davomida men bunday g'ayriilmiy usul va vositalar orqali tuzalib ketgan biror bemorni uchratmadim. Maslahatim shuki, qimmatli vaqtni aslo yo'qotmang, o'z vaqtda mutaxassisga boring!

— **Saraton nasidan-nasiga o'tadimi?**

— Saratonning ko'krak bezi, tuxumdon, ingichka va yo'g'on ichak kabi ayrim turlarida irsiy omil rol o'ynashi mumkin. Ammo rivojlanib ketishining oldini olsa bo'ladi. Buning uchun muntazam tekshiruvlardan o'tib turish, salomatlikka e'tiborli bo'lish lozim.

Bugungi kunda kasallikka nasliy jihatdan moyilik bor yoki yo'qligini aniqlash uchun ko'plab mamlakatlarda chuqur genetik tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Albatta, bunday xizmatning narxi ancha qimmat turadi. Lekin shunga qaramasdan, bizing mintaqamizda ham bunday tekshiruvlarni rivojlantirish zarur. Bu borada



**QISQA SATRLARDA**

**Fidoi faxriylar sharaflandi**

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining bir guruh nuroniyalariga "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni topshirildi.



Tantanali marosimda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi, senator Qudratilla Rafiqov mukofotlanganlarni tabriklab, yurtimizda keksa avlod vakillariga alohida g'amxo'rlik ko'rsatayotganini, inson qadrini ulug'lash, uning huquq va manfaatlarini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilayotganini alohida ta'kidledi.

O'zbekiston "Nuroni" jamg'armasi boshqaruvi raisi, O'zbekiston Qahramoni, senator Sodiqjon Turdiyev, mazkur jamg'arma boshqaruvi raisining birinchi o'rinbosari, taniqli jurnalist Sharof Ubaydullayev mukofotlarni o'z egaligiga topshirdi.

**Tanlovning eng asl va yorqin tomoshasi**

Yaqinda Dubay (BAA) shahrida "Dubay grand festival" xalqaro bolalar teatrlari tanlovi bo'lib o'tdi.

Gruziya, Mo'g'uliston, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, BAA vakillari ishtirok etgan mazkur tanlovda mamlakatimiz "Tomosha" bolalar musiqali teatr-studiyasi "O'zbek suvenir", "O'zbekiston armug'oni" nomli teatrlashtirilgan tomoshalari bilan qatnashib, Gran-pri sohibiga aylandi.

O'zbek milliy qadriyatlarini, madaniy merosi, osoriyatlarini haqida hikoya qiluvchi mazkur badiiy teatrlashtirilgan dastur butun dunyodan yig'ilgan tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi.

**Arxeologik topilmalar ko'rgazmasi**

Samarqanddagi "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti qoshidagi Art-rezidensiyada Sharja amirligining arxeologik topilmalari ko'rgazmasi ochildi.

Shu munosabat bilan o'tkazilgan tadbirda qayd etilganidek, bunday ko'rgazma avval Yaponiya, Ispaniya va Belgiyada yuqori darajada tashkil etilgan. 2020-yil Lissabondagi Milliy arxeologiya muzeyida "Sharja arxeologiyasi" ko'rgazmasi ochildi va Portugaliya muzeyshunoslik assotsiatsiyasi tomonidan e'tirof etildi.

Mazkur ko'rgazma 22-maygacha davom etadi.

**AKTga bag'ishlangan teatr festivali**

25 - 30-aprel kunlari mamlakatimizda ilk bor "XXI asr bolalari" birinchi xalqaro bolalar teatrlari +IT festivali bo'lib o'tadi.

Madaniyat hamda Raqamli texnologiyalar vazirliklari, IT ta'lim uyushmasi va O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri hamkorligida tashkil etiladigan ushbu festivalda O'zbekiston, Ozarbayjon, Rossiya, Belarus, Gruziya, Kipr kabi davlatlardan oltinchi yilgi ijodkorlar ishtirok etishi kutilayotir.

**Investitsiya forumi boshlandi**

Namangan shahrida "Namangan - Xitoy" investitsiya forumiga start berildi.

Tadbir doirasida "Made in Namangan" milliy mahsulotlar ko'rgazmasi tashkil etilib, unda yengil sanoat, charm poyabzal, elektrotexnika, qurilish materiallari, oziq-ovqat va mebelsozlik sohaslaridagi 300 dan ko'p korxonalar tomonidan 2,5 mingdan ziyod mahsulotlar namoyish qilindi.

Ikki kun davom etadigan forum dasturidan viloyatning iqtisodiy salohiyatini ko'rsatuvchi hamda madaniy va sayyohlik tadbirlari ham o'rin olgan.

"Xalq so'zi".

**BIR BURDA NON QADRI**



**Peshku tumanidagi Talisobun qishlog'ida yashayotgan Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Nazar Sherov yaqinda yurakka og'ir botadigan voqealardan birini aytib berdi.**

**Taassuf**

— Shahar, qishloqlarni dushmandan ozod qilayotganimizda yerto'lalarda jon saqlagan, ko'zlari ich-ichiga botib ketgan, cho'pday ozg'in bolalarga duch kelardik, — deydi 98 yoshli xotirasi tiniq otaxon. — Ular bizni ko'ra solib oldimizga yugurishar, bir burda non ilinjida "Dyadya, day xleb", deya jajji qo'llarini cho'zishardi... Bugun-chi, oramizda shunday aziz ne'matni isrof qilayotganlar, qadri baland yegulikka bepisandlik bilan munosabatda bo'layotganlar ham uchrab turgani achinarlidir.

Toshkent shahridagi ko'p qavatli uylar yaqindagi chiqindi yig'ish maydonchalarining biri oldidan o'tayotib beixtiyor Nazar otaning shu so'zlari yodimizga tushdi. Gap shundaki, maydoncha chetida chamasini bir qop non uyulib yotar, ular orasida bus-butun buxankalar ham uchraydi.

— Afsuski, ayrim odamlar non qadru qimmatini unutib

qo'yishmoqda, — deydi chiqindi yig'ish maydonchasida ishlayotgan o'rta yoshli ayol. — Mog'orlagan, ushatilganu shu ko'yi yeyilmagan nonlarni tashlab ketishadi. Ko'rib turganingizdek, ularni oftobda jon saqlagan, keyin qopga solamiz. Qoramol yoki qo'y boqadiganlarga beramiz. Bir haftada olti qop non bo'ladi. Narigi axlatxonada bundan ham ko'p to'planadi.

Ma'lumotlarga qaraganda, Toshkent shahrida birgina "Yashnobod maxsustrans" korxonasiga qarashli 93 ta chiqindi yig'ish maydonchasi bor. Ularning har birida haftasiga o'rtacha uch-to'rt qopdan non bo'laklari to'planganida ham bu aziz ne'matning qanchadan-qanchasi isrof bo'layotganini tasavvur etish qiyin emas.

— Yaqinda Toshkent shahrida qolipli non (buxanka) narxi xiyla qimmatladi, — deydi piru badavlat otaxonlardan biri Shodiqul To'xtayev. — Tabiiyki, buni turlicha talqin qilish hollari kuzatildi. O'g'lim fermer bo'lgani uchun yaxshi bilaman: bug'doyni yetishtirishdan tortib, uni tayyor non holiga keltirishgacha bo'lgan jarayon juda katta mehnat, kuch-g'ayrat, mablag'ni talab qiladi. Shunday ekan, nonning qadriga yetaylik.

O'yab qolasan kishi: kundalik hayotimizda hech bir taom dasturxonada non bo'lmasa, tatimaydi. Bundan chiqadiki,

dunyoda non o'rmini bosa oladigan ne'matning o'zi yo'q. Jahonning qay bir go'shasida odamlarning to'yib ovqatlanmayotganini, go'daklarning och-nahor, bir burda nonga zor yurganini-ku aytmay qo'ya qolaylik.

Maqolamiz boshida tilga olganimiz Nazar otaga kelsak, u salkam 79 yil o'tibdi hamki, suronli urush yillarida norasida go'daklarning non so'rab qilgan iltijolarini unutolmaydi. Mabodo, non uvog'i yerda yotganiga ko'zi tushsa, evaralariga daki beradi. Kelinlariga nonni uvul qilmaslik kerakligini uqtiradi. Shunday farovon kunlarga yetkazganiga shukrona aytarkan, bugungi to'qlikning qadriga yetish, rizq-ro'zimizning ushug'ini bo'lsa-da, isrof qilmaslikni takrorlashdan erinmaydi.

Qaniydi, otaxonning bu hayotiy saboqlari nuroniyalar murabbiylar tomonidan har bir oila davrasida, bog'cha-yu maktablarda ham yo'lga qo'yilsa, shunda yoshlarimiz non, tinch va farovon hayot qadriini yanada chuqurroq anglab yetisharmidi...

Istam IBROHIMOV ("Xalq so'zi").

**UMUMMILLIY LOYIHA**

**EKOLOGIK VAZIYATNI BARQARORLASHTIRADI**

Respublikamizning energetika tarmog'i uchun yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlashga ixtisoslashtirilgan "Moskva energetika instituti" milliy tadqiqot universitetida "Olam nurga to'lsin sen bilan, Navro'zi" degan bosh g'oya asosida teatrlashtirilgan tantanali tadbir tashkil etildi. Musiqa sadolari, karnay-surnay ohanglari yangradi, tadbir ishtirokchilari bahorning anvoyi gullari bilan kutib olindi.

**Shukuh**

Universitetda tashkil etiladigan har bir tadbir rasmiyligidan xoli, o'ziga xos tarzda o'tkaziladi. Bu gal ham tadbir ochiq deb e'lon qilingach, talabalar tomonidan tayyorlangan ssenariy

asosida konsert dasturi, milliy sport o'yinlari namoyish etildi, sahna ko'rinishlari ijro qilindi. Shuningdek, mamlakatimizning har bir viloyati milliy taomlari tanlovi o'tkazildi.

— "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ekologik vaziyatni

barqarorlashtirishga qaratilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi kengaytirish, respublikada yashilik darajasini 30 foizga yetkazish ko'zda tutilgan, — deydi "MEI" milliy tadqiqot universiteti ijrochi direktori, professor Hojiakbar Daliev. — Umuman, mamlakatimiz bo'yicha 444 ta yashil bog' barpo etish belgilangan. Bu hazilakam gap emas. Umummilliy loyiha doirasida har bir tashkilot, korxon va muassasa tomonidan mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekilmoqda. Mazkur loyihaga universitetimiz professor-o'qituvchilari jamoasi va

talaba yoshlar ham o'z hissasini qo'shdi. Universitetda o'tkazilgan daraxt ekish aksiyasiga mahalla faollari va ko'ngilli yoshlar ham jalb qilindi. Tadbir doirasida bir gektardan ziyod maydonga 500 dan ortiq archa, olma singari mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekildi. Eng muhimi, har bir ko'chat "Yashil makon" platformasi orqali ro'yxatga olinib, ularning parvarishi uchun mas'ul shaxslar birkitrildi, unib-o'sishi nazoratga olindi. Bunday tadbirlar yoshlarimizni tabiatga nisbatan e'tiborli bo'lish, Vatanga sadoqat,

mehr-muhabbat ruhida tarbiyalaydi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iro'tboy Sharipov, Energetika vazirining o'rinbosari Azizxo'ja Qabulov, Rossiya Federatsiyasining mamlakatimizdagi elchixonasi xodimlari qatnashdi. Bayram ong'ida professor-o'qituvchilar jamoasining faol ishtirokchilari, bir guruh talaba-yoshlar ta'lim muassasasining tashakkurnoma hamda faxriy yorliqlari bilan taqdirlandi.

Nurulloh OSTONOV ("Xalq so'zi").

**SPORT**

**xabarleri**

**Chavandozlarimiz hech kimdan kam emas**

Shu kunlarda Saudiya Arabistonining Ar-Riyod shahrida ot sportining konkur yo'nalishi bo'yicha jahon kubogi musobaqalarining final bosqichi bo'lib o'tmoqda.




Mukofot jamg'armasi 2,6 million yevroga teng mazkur sport anjumanida O'zbekiston vakillari ham muvaffaqiyatli ishtirok etayotir. Jumladan, hamyurtimiz Nurjon Tuyakboyev "Kvintus" laqabli tulpori bilan balandligi 160 santimetr bo'lgan to'siqlardan ot sakratish yo'nalishida final yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

Endi sportchimiz jahon kubogi final bahslarida yetakchilik qilayotgan shvetsiyalik Xenrik fon Ekkeremanga qarshi g'oliblik uchun kurash olib boradi.

Musobaqa 20-aprel kuni yakuniga yetadi.

**G'alaba onlari yaqin**

Qatar davlati poytaxti Dohada sport gimnastikasi bo'yicha jahon kubogi musobaqalarining to'rtinchi bosqichi bo'lib o'tmoqda.



Dastlabki kun doirasidagi saralash bahslarida ishtirok etgan hamyurtimiz Oksana Chusovitina tayanib sakrash dasturida 13.049 ball to'plab, final yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

Yana bir vakilimiz Abdulaziz Mirvaliyev esa erkin mashq dasturida 13.800 ball jamg'ardi va medallar uchun kurashish imkoniyatini saqlab qoldi.

Kecha Rasuljon Abdurahimov parallel brusda, Oksana Chusovitina esa erkin mashq va to'sin yo'nalishida bellashuvlarda ishtirok etdi.

"Xalq so'zi".

**REKLAMA**

**Investor va qurilish tashkilotlari rahbarlari diqqatiga!**

Davlatimiz rahbarining 2019-yil 29-maydagi 4343-qaroriga muvofiq, shuningdek, ichki ishlar organlari xodimlari va harbiy xizmatchilarining zamonaviy talab darajasida hamda arzon uy-joylar qurish va berish hisobidan ularni rag'batlantirish hamda ijtimoiy himoya qilish darajasini oshirishga oid Prezidentning 2022-yil 8-fevraldagi 118-qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-oktabrdagi 865-qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Toshkent shahar IIBB tasarrufidagi Chilonzor tumani, 9-mavze, Cho'ponota ko'chasi, 21 "A"-uyda joylashgan 3500 m<sup>2</sup> (0,35 ga.) bo'lgan bo'sh yer maydonida Toshkent shahar ichki ishlar organlari xodimlari uchun ko'p qavatli turarjoy binolarini "tayyor holda topshirish" shartlari bilan davlat-xususiy sheriklik asosida qurish

bo'yicha investorlar va qurilish tashkilotlari mutasaddirlarini hamkorlikka taklif etamiz. Tanlovda qatnashish istagida bo'lgan tashkilotlar vakillaridan quyidagilar talab qilinadi:

- Investor yoki qurilish tashkilotining nizomi va guvohnomasi;
- Ushbu tashkilotning tashkiliy tuzilishi bo'yicha ma'lumot;
- Uning oxirgi uch yillik (2021, 2022 va 2023-yillar) moliyaviy holati to'g'risida ma'lumot (oxirgi uch yillik "F-1" va "F-2" hisobotlari, pudrat shartnomalari, obyektini foydalanishga topshirish bo'yicha nusxalarini ilova qilish shart);
- Xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan investor yoki qurilish tashkilotining qarzdorlik mavjud emasligi to'g'risida ma'lumotnoma;
- Soliq inspeksiyasi tomonidan investor yoki qurilish tashkilotining qarzdorligi

mavjud yoki mavjud emasligi to'g'risida ma'lumotnoma hamda ishchi-xodimlari to'g'risida ma'lumot (soliq hisobotida ko'rsatilgan ishchilar soni "milliy mehnat. uz" bazasiga to'g'ri kelishini isbotlovchi hujjatlarni ilova qilish shart);

- Investor yoki qurilish tashkilotining moddiy-texnika bazasi hamda qurilish texnikasi va kichik qurilish mexanizmlari to'g'risida ma'lumot (texnik pasportlarning nusxalari bo'lishi shart);
- Qurilish rejalashtirilgan hududga loyiha taklifi (bosh reja, fasad, qavatlar rejasi, 3D ko'rinishda);
- Qurilish ishlarini olib borish, qurilish muddatlari va qurilish shartlari ko'rsatilgan tarmoq rejasi (tasdiqlangan ko'rinishda);
- Qurilishi rejalashtirilayotgan ko'p qavatli turarjoy binolaridagi xonadonlarning eng kamida 50 foizini

ichki ishlar organlari xodimlari va harbiy xizmatchilari uchun imtiyozli arzonlashtirilgan narxlarda sotish bo'yicha hisoboti (tjorat taklifi);

- Loyihalanyotgan ko'p qavatli turarjoy binosi joylashgan hududda qo'shimcha ravishda alohida transformator, avtomobillar turarjoyi, chiqindi tashlash joyi hamda bolalar maydonchasi bo'lishi shart;
- Taklif uchun loyihalanyotgan ko'p qavatli turarjoy binosining qavatlarini yer maydoni joylashgan tuman bosh arxitektori bilan maslahatlashgan holda kelishishi lozim;
- Mazkur shartlar bo'yicha hamkorlik qilish istagidagi investor yoki qurilish tashkilotlari mutasaddirlari 2024-yilning 15-may kuniga qadar tanlov yuzasidan qo'shimcha ma'lumot olish uchun quyidagi manzilga murojaat etishlari mumkin:

**Toshkent shahri, Mirobod tumani, Sodiq Azimov ko'chasi, 87-uy.**

**Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi**

**Telefon: 71-206-44-08.**

**Qurilishi rejalashtirilayotgan obyekt manzili: Toshkent shahar IIBB tasarrufidagi Chilonzor tumani, 9-mavze, Cho'ponota ko'chasi, 21 "A"-uyda joylashgan 3500 m<sup>2</sup> (0,35 ga.) bo'lgan bo'sh yer maydoni.**

**Xalq so'zi Narodnoe slovo**

**MUASSISLAR:**  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

**Bosh muharrir O'tkir RAHMAT**

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-442. 14 540 nusxada bosildi. Hajmi — 2 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



**TELEFONLAR:**  
Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begumarov tomonidan sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

**MANZILIMIZ:**  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatchi muharrir N. Ostonov.  
Musahhah S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 22.30 Topshirildi — 00.15 1 2 3 4 5 6